



## BARKAMOL SHAXSNI TARBİYALASHDA PEDAGOGNING SHAXSIY VA KASBIY KOMPETENSIYASINING AHAMIYATI

**Axmedov Jaloliddin Oribovich**

*Andijon Davlat Universiteti*

*jismoniy madaniyat fakulteti dosenti.*

**Annotatsiya:** Maqolada barkamol shaxsni tarbiyalashda pedagogning shaxsiy va kasbiy kompetensiyasining ahamiyati to'g'risida malumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tizimi, kasbiy kompetensiya, ilg'or pedagogik texnologiya, shaxs sifatlarini shakllantirish, pedagog.

**Annotation:** The article provides information about the importance of the personal and professional competence of the pedagogue in raising a well-rounded person.

**Key words:** Educational system, professional competence, advanced pedagogical technology, personality formation, pedagogue.

**Аннотация:** В статье представлена информация о значении личностно-профессиональной компетентности педагога в воспитании всесторонне развитой личности.

**Ключевые слова:** система образования, профессиональная компетентность, передовые педагогические технологии, формирование личности, педагог.

### KIRISH

Ta'lim tizimini modernizatsiyalashda ta'limning barcha bo'g'inlarida tobora faol qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishi bolalarning ma'naviy kuchi, qobiliyatlarini ochish uchun maqbul sharoit yaratib bermoqda. Bugungi kunda erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o'tkazishni taqozo etayotgan bir vaqtda pedagoglardan xam o'z kompetensiyasiga ega bo'lishi muhim ahamiyaga egadir. V.P.Bespalkoning ta'rifiga ko'ra "pedagogik tizim - ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisidir". Har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak. Ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsad va vazifalari - pedagoglarning shaxsiy kompetentligini aniq belgilab beradi yoki oliy ta'lim uchun pedagogik tizimning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining shaxs tarbiyasi masalalari kun tartibiga qo'yilgan ilk davrlardanoq bolalarning ta'limi va tarbiyasi uchun mas'ul shaxslar toifasining shakllanishi, ularning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan ijtimoiy talablarga javob bera olishlari, kasbiy mahoratga ega bo'lishlariga nisbatan ijtimoiy



talablar qo'yila boshlagan. Talabalarni ijtimoiy talablar bilan yaqindan tanishtirish, ularda pedagogik malaka va kasbiy mahoratni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalar keng joriy etish, talim va tarbiyada mukammal vositalardan foydalanilinishda pedagoglardan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish talab etiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### MUXOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda pedagoglarimiz barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, eng avvalo ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi zarur. SHu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, etuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Pedagogik mahorat bu — yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo'lish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq etishi asosida tarkib topadi. YOsh, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta'minlanadi. Pedagoglarning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. SHu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim. Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqeyi, u tomonidan pedagogik texnikaning etarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi.

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Barchamizga ma'lumki, kasbiy kompetentlik tushunchasi har qaysi mutaxassisning individual kasbiy faoliyati yuzasidan kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab borishi xamda amaliy faoliyat jarayonida unumli qo'llay olishi tushuniladi. Pedagogning o'z-o'zini rivojlantirish vazifalari avvalo o'zini ustida ko'proq ishlash hamda doimiy ravishda o'z ishlarini tahlil qilish asosida aniqlanadi. Pedagog o'zini o'zi tahlil qilish orqali o'ziga obektiv baxo berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishlarida ularning o'z-o'zlarini baholash malakalariga ega bo'lishlari ham muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda pedagoglarimiz o'z kasbiy kompetensiyalariga ega bo'lishlarida :

- o'z ustida doimiy izlanishi va bilimlarini izchil boyitib borsalar;
- doimiy ravishda yangi axborotlarni o'zlashtib, yangi bilimlar ustida izlansalar;
- xar bir ma'lumotni o'z o'rnida qo'llay bilsalar va amaliy faoliyatga o'z pedagogik texnologiyalarini qo'llay olsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.



Kasbiy kompetentlik mutaxassislar tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini ham nazarda tutadi.

#### XULOSA

Pedagogik kasbiy mahorati bo'lajak mutaxassislarni ta'lim va tarbiya jarayonlarni metodik jihatdan puxta, tashkiliy jihatdan samarali tashkil eta olishlarida muhim poydevor hisoblanadi. Ularning pedagogik texnikaga ega bo'lishlari kasbiy jarayonda yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlarni samarali, salbiy nizolarsiz uyushtirilishini ta'minlash bilan birga hech bir qiyinchiliksiz ta'lim va tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etilishiga ham yordam beradi.

#### USED LITERATURE:

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari .G` Muslimov N.A., Usmonboeva va boshqalar.- Toshkent, 2015. – 120 bet.
2. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). M.X.Toxtaxodjaeva, S. Nishonova va boshqalar .Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010. - 400 b.
3. [www.google.uz](http://www.google.uz)
4. M.Mirsolieva., G.Ibragimova — Ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahoratT:2015.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T:2003
6. Kudzoeva V.I. Formirovanie professionalno-pedagogicheskoy kompetentnosti prepodavateley srednix spetsialnykh uchebnykh zavedeniy: dis.... kand. ped. nauk. – Volgograd, 2006.